

LANGUAGE LEARNING THROUGH HARD AND SOFT CLIL MODELS

Ornigul Torebaeva

Doctoral student, Nukus State Pedagogical Institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20726524>

Annotation

This article analyzes modern approaches to English language learning, namely ESP and CLIL methodologies. It examines the types of Hard and Soft CLIL, their requirements for teachers and students, the role of subject content and language, as well as the possibilities of implementing these approaches in the education system of Uzbekistan.

Keywords: ESP, Soft CLIL, Hard CLIL, academic English, integration of language and subject content.

ИЗУЧЕНИЕ ЯЗЫКА С ПОМОЩЬЮ МОДЕЛЕЙ HARD И SOFT CLIL

Орныгул Торебаева

Докторант Нукусского государственного педагогического института

Аннотация

В данной статье анализируются современные подходы к изучению английского языка, а именно методики ESP и CLIL. Рассматриваются виды Hard и Soft CLIL, их требования к преподавателям и студентам, роль учебного предмета и языка, а также возможности внедрения данных подходов в систему образования Узбекистана.

Ключевые слова: ESP, Soft CLIL, Hard CLIL, академический английский язык, интеграция языка и предметного содержания.

HARD VA SOFT CLILNING MODELLARI YORDAMIDA TILNI O'RGANILISHI

Ornigul Torebaeva

Nukus Davlat Pedagogika Instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganishdagi zamonaviy yondashuvlar – ESP va CLIL metodikalari tahlil qilinadi. Hard va Soft CLIL turlari, ularning o'qituvchi va talabalarga bo'lgan talablar, fan va tilning roli hamda O'zbekiston ta'lim tizimida tatbiq etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi

Kalit so'zlar:

ESP, Soft CLIL, Hard CLIL, akademik ingliz tili, til va fan integratsiyasi

Kirish

Biz maktabdan boshlab taxsil olib boshlaganimizdan berli hamma darsliklarni ona tilimizda bemalol o'zlashtira olganmiz. Inglis tilini o'rganish faqat xorijiy til sifatida o'zlashtirganbiz. Hozirgi kunga kelib o'qitish metodikasi yildan yilga yangilanib, bugungi globallashuv davrida ingliz tili nafaqat xorijiy til, balki **xalqaro muloqot va bilim vositasi** sifatida o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ham ingliz tiliga bo'lgan talab va e'tibor yildan-yilga ortib bormoqda. Davlat siyosati darajasida olib borilayotgan islohotlar, jumladan, “**Xorijiy tillarni o'qitishni 2021–2025 yillarda rivojlantirish konsepsiyasi**” maktab ta'limida ingliz tilini erta yoshdan o'rganishni majburiy holga keltirdi.[1]

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o‘qitish borasida **tub islohotlar amalga oshirilib**, milliy dasturlar, xorijiy tajribalarni o‘rganish orqali umumiy va oliy ta‘lim tizimida **innovatsion yondashuvlar**, xususan **CLIL metodikasiga** bo‘lgan ehtiyoj ortmoqda. *Kasbiy kompetensiyani ingliz tilida o‘zlashtirishda ESP darsliklari CLIL metodi asosida o‘qitish darsliklarga qarab ikki turga ajraladi: hard (qattiq) CLIL va soft (yumshoq) CLIL.* Bu CLIL (Content and Language Integrated Learning), ya‘ni fan va tilni Integratsiyalashgan o‘rganish metodikasining ikki asosiy turi hisoblanadi. Ular asosiy maqsad va tilning roli jihatidan farqlanadi. Quyida ularning tafsilotlarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, Hard CLIL (qattiq CLIL) — bu o‘quv dasturida fan asosiy rolni o‘ynaydigan CLIL turidir. Unda faniy bilim chuqur o‘rgatiladi, til esa vosita sifatida ishlatiladi. Shu nuqtai nazardan, ayniqsa **soft CLIL** modeli O‘zbekistonda **amalga oshirish imkoniyatlari yuqori, bosqichma-bosqich joriy etilishi mumkin bo‘lgan dolzarb yondashuv** hisoblanadi. Unda chet tilini o‘rganish davomida faniy mazmundan foydalaniladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Xususiyatlaridan misol keltiradigan bo‘lsak, Soft CLILning asosiy maqsad bu til o‘rganish. Til darsida faniy mazmun masalan, tarixiy voqealar, ilmiy mavzular yozishga ishlatiladi. Fan o‘qituvchisi emas, bu dars til o‘qituvchilari tomonidan o‘tiladi. Shu o‘rinda ingliz tili o‘qituvchisi o‘zi tanlagan mavzular orqali CLILni qo‘llay oladi. Vaholanki, o‘rganuvchilar fanni chuqur emas, soddalashtirilgan shaklda o‘rganiladi. Misol qiladigan bo‘lsak, ingliz tili darsida mavzuga oid matn o‘qiladi, so‘ng grammatik va lug‘aviy mashqlar bajariladi. Soft CLIL orqali o‘quvchilar ingliz tilida fan doirasida fikrlashni o‘rganadi, bu esa xalqaro akademik muhitga tayyorlaydi. Ko‘pchilik izlanuvchilar Soft va Hard CLIL ni solishtirganda **David Lasagabaster & Yolanda Ruiz de Zarobe tadqiqotchilar Ispaniyada CLIL tajribasinin tahlil qilganida Soft CLIL ni umumiy maktablar uchun mos va samarali bo‘lganini, sababi kuchli til bilim darajasi talab qilinmaydi [4; 89].**

Dastlab tilni o‘rgatishga yo‘naltirilgan mazmun (kontent) ham til o‘rgatishning vositasi sifatida ishlatiladi. Bu yondashuvda studentlar ko‘pincha boshlang‘ich bosqichda yoki chet tili kam rivojlangan bo‘lsa ham darslarda o‘z bilimlarini ochira oladi. Dars beruvchi o‘qituvchilar chet til o‘qituvchilari bo‘lib, ular boshqa fanlardan mavzulari kiritib masalan: tarix, biologiya matnlaridan ham ma‘lumot kiritadi. Masalan, ingliz tilini o‘rgatish darsida “iqlim o‘zgarishi”, “inson anatomiyasi”, “Kosmos” kabi mavzular muhokama qilinadi. Dars mazmunida fanga oid leksika, matnlar, grafikalar kiritiladi, ammo bu chuqur fan ta‘limini bermaydi. **Päivi Mehisto, Maria Jesus Frigols and David Marshning fikricha Soft CLIL maktab bosqichi uchun eng maqbul bosqichli yondashuv deb bilib** lekin Hard CLIL esa, ularning tadqiqotlarida **bilingval maktablar uchun va xalqaro IB (International Baccalaureate) tizimida muvaffaqiyatli tatbiq etilganini ko‘rsatadi [5; 389].** Bunnan boshqa olim **Christian Dalton-Puffer CLIL metodi chet tilini ikki turda o‘rganilib**, u Soft CLILni **kommunikativ til o‘rganish bilan uzviy bog‘liq** deb hisoblaydi [2; 119]. Lekin Hard CLILda esa fan mazmuni yetakchi rolni o‘ynaydi va **akademik til** ustuvor bo‘ladi. Hamma tadqiqotshilardan ajralib turuvchi **Ofelia García Soft CLIL ni bilingval yondashuvning kuchli bosqichi** sifatida ko‘radi [3; 78]. Va uning aytishisha Soft CLIL o‘quvchilarning **til o‘zlashtirishdagi psixologik to‘siqlarini yengishga yordam beradi**, deya ta‘kidlaydi.

Muhokama. Shu bilan bu qatorda, global ilm-fan, texnologiya va ta‘lim tillari orasida ingliz tili **asosiy xalqaro aloqa vositasiga** aylangan. Universitet talabalari uchun ingliz tilini bilish nafaqat xorijiy adabiyotlar bilan ishlash, balki **ilmiy maqolalar yozish, xalqaro grantlarda ishtirok etish, chet elliklar bilan muloqot qilish, IELTS kabi testlardan o‘tish** uchun zarur. Shu sababli, bugungi kunda **universitet ta‘limida ingliz tilini o‘rganish masalasi nihoyatda**

dolzarb hisoblanadi. Lekin, so‘nggi yillarda ingliz tiliga bo‘lgan e‘tibor kuchaygani bilan birga, **universitetlarda hali to‘laonli til kompetensiyasi shakllanmagan** talabalar soni yuqori. O‘rganish jarayonida asosiy muammolardan biri **interaktiv metodlar yetishmovchiligi sababli ham** darslar ko‘pincha **grammatika va tarjima** asosida olib borilib, real muloqot, taqdimot, esse yozish mashqlari kam bo‘lganligi sababli **akademik ingliz tilini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarga uchraydi va bu** talabalar umumiy ingliz tilini bilishsa-da, **fan sohasidagi terminlar, yozma nutq va og‘zaki taqdimotlarda** qiynaladilar. Bu qiyinchiliklarda yechim sifatida Universitet talabalari uchun oddiy ingliz tili emas, balki har bir yo‘nalish uchun **maxsus soha** akademik ingliz tili (ESP – English for Specific Purposes) darslari tashkil etilishi kerak. Masalan aytib o‘tsak,

- Tarixchilar uchun – *English for Historians*
- Iqtisodchilar uchun – *Business English*
- Tabiiy fanlar uchun – *Scientific English*

Bunda universitet fanlarini ingliz tilida (yoki ingliz tilidan foydalangan holda) o‘rgatish — **talabaning til ko‘nikmasini real kontekstda shakllantiradi.**

Masalan: tarixiy voqealarni ingliz tilida muhokama qilish, matematiklar sonlarni yoki masalalarni ingliz tilida o‘rgansa va fanni akademik tilda tushuntirilsa **faqat til emas, balki kasbiy kompetensiyani** shakllantirish jarayonidir.

Natijalar. Hard CLIL esa o‘rta va oliy ta‘lim bosqichlarida ko‘proq qo‘llanilishini ko‘rsatadi. Oliy ta‘limda Hard CLIL bo‘yicha o‘qitishdan boshlashdan oldin birinchi o‘rinda o‘qituvchi tayyorlov kurslari Soft CLIL bilan boshlanishi kerakligini urg‘ulaydi. Shunday qilib, Hard va Soft CLIL farqlari taqqoslasak birozgina farqli tomonlari ko‘rinadi:

Tavsif	Hard CLIL	Soft CLIL
Asosiy maqsad	Fanni o‘rgatish	Tilni o‘rgatish
Tilning roli	Vosita	Asosiy o‘quv ob‘ekti
O‘qituvchi turi	Fanni o‘qituvchi	Til o‘qituvchisi
Fanning chuqurligi	Yuqori	Past (soddalashtirilgan)
O‘quvchilarning tayyorgarligi	Yuqori til darajasi kerak	Boshlang‘ich va o‘rta darajalar bo‘lsa ham bo‘ladi

Hozirgi kunda o‘qituvchilarining aksariyati hali hard CLIL(qattiq CLIL) o‘tkazishga til yoki fan kompetensiyasi jihatdan ham CLILni darhol qabul qilishga tayyor emas, sababi maxsus metodik qo‘llanmalar, materiallar bilan yetarli darajada ta‘minlanmagan. Soft CLIL bilan o‘qitish orqali hard CLIL gacha bo‘lgan jarayonni tayyorlashga yordam beradi. Oliy ta‘lim studentlariga ingliz tilini o‘rgatishda asosiy vazifasi til ko‘nikmalarini rivojlantirib, bu jarayonda mavzuli kontentdan foydalaniladi. Bu chet tilini o‘qitish jarayonida o‘quv fanlaridan (masalan, tarix, geografiya, biologiya) mavzularni til o‘rganishga yordam beradigan vosita sifatida ishlatish modeli xisoblanib, u an‘anaviy til darslaridan farqli ravishda, mavzuli kontekstda til o‘rgatishni maqsad qiladi. Lekin asosiy e‘tibor til o‘rgatishga qaratiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Soft va Hard CLIL metodikalari universitetlarda ingliz tilini fan doirasida o‘rgatishda samarali yondashuvlarni ta‘minlaydi. Hard CLILda fan mazmuni asosiy rol ni o‘ynasa, til vosita sifatida ishlatiladi; Soft CLILda esa til asosiy maqsad bo‘lib, fan mazmuni til o‘rganishni qo‘llab-quvvatlaydi. O‘zbekiston sharoitida Soft CLILni bosqichma-bosqich joriy etish imkoniyatlari yuqori bo‘lib, talabalarining til ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, Hard CLIL universitet va oliy ta‘lim bosqichlarida muvaffaqiyatli tatbiq etilishi mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi. (2021). *Xorijiy tillarni o'qitishni 2021–2025 yillarda rivojlantirish konsepsiyasi*.
2. Dalton-Puffer, C. (2011). *Content and Language Integrated Learning: From practice to principles?* Annual Review of Applied Linguistics.
3. García, O. (2009). *Bilingual Education in the 21st Century: A Global Perspective*.
4. Lasagabaster, D. & Ruiz de Zarobe, Y. (2010). *CLIL in Spain: Implementation, Results and Teacher Training*.
5. Päivi Mehisto, Maria Jesus Frigols & David Marsh (2008). *Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education*.